

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI
“QURILISHNI BOSHQARISH” FAKUL'TETI
“MENEJMENT” KAFEDRASI**

Madaminov Sardorbek Quvondiqovichining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Qurilishda menejmentning zamonaviy usullari
asosida samaradorlikni oshirish
(“KHOREZM BRIKS” MChJ misolida)**

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: k.o'qt. Karimova O.U.

Toshkent-2013y.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QURILISH KORXONALARIDA MENEJMENTNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISHNING NAZARIY JIHA TLARI	
1.1. Korxon a samaradorligini oshirishda menejment tushunchasi va uning mohiyati	7
1.2. Qurilish korxon asida menejment samaradorligini oshirishning turlari va uning foydalilik xususiyatlari	12
1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonasi ishlab chiqarish faoliyatida menejmentning zamonaviy usullarini shakllantirish	16
II-BOB. QURILISH KORXONASIDA MENEJMENT SAMARADORLIGI VA UNING XO'JALIK FAOLIYATI TAHLILI ("KHOREZM BRIKS" MCHJ MISOLIDA)	
2.1. "KHOREZM BRIKS" MCHJ ning asosiy texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning to'lovga qobiliyatlilik tahlili	21
2.2. "KHOREZM BRIKS" MCHJning menejment samaradorligiga ta'sir etuvchi moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlili	26
2.3. "KHOREZM BRIKS" MCHJ rentabellik ko'rsatkichlari tahlili.....	37
III-BOB. "KHOREZM BRIKS" MCHJDA MENEJMENTNING ZAMONAVIY USULLARI ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	
3.1. Qurilish korxon asida ishlab chiqarishni samarali boshqarishda menejmentning zamonaviy usullaridan foydalanish.....	43
3.2. Korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati samaradrligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar	50
XULOSA	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	62

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikada ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlar, boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishi kishilar hayoti o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shaxs erkinligi, tadbirkorlik, ijodchilik masalalarini ilgari surdi.

O'zbekiston Respublikasi umuminsoniy tamoyillariga asoslanib, ularga muvofiq eng muhim qadriyat-inson, uning hayoti, erkinligi, izzati, qadr-qimmatini va boshqa huquqlariga og'ishmay amal qilib kelmoqda. Jamiyatdagi, iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun insonlarning ijtimoiy qarashlarini o'zgartirish, ular yangi bilimlarni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratish lozim. Bu bilimlarning muhim qismi-menejment mahorati va ilmini egallash hisoblanadi.

Tor ma'noda menejment(boshqarish) kishilarga vazifani bajarish, o'zga kishilarning mehnati, zakovati, fe'l atvori sababalaridan foydalangan holda qo'yilgan maqsadga erishish qobiliyati, shuningdek, ishlab chiqarishni uning samaradorligini oshirish va foyda olish maqsadida boshqarish usullari, vositalari va shakllaridir. Menejment inson bilimining biznesi qanday amalga oshirishni tushunishgagina emas, balki turli vaziyatlarda xatoga yo'l qo'ymaslikka erishishga imkon beruvchi sohani ifodalaydi.

Kelajakda korxonalar faroliyatida menejment samaradorligini oshirish va uni yanada rivojlantirish orqali global muammolarni hal qilishda o'zining ahamiyatini oshirib boradi. Ayniqsa mazkur jarayonlarni amalga oshirishda inson omilini rivojlantirish fan texnika taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida samarali boshqarish tizimlarini shakllantirish, ishlab chiqarishni iste'molchilar ehtiyojlariga javob berishga qaratish; fuqarolarning iqtisodiy erkinligiga erishish mehnatsevarlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik, yuqori samaradorlikni rag'batlantirish uchun sharoit yaratishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida kuchli ijtimoiy siyosat, avvalo sermahsul mehnat

qilish uchun yaxshiroq rag'bat va imkoniyatlar yaratishdan iboratligi, iqtisodiy yo'l tanlash va faoliyat ko'rsatish erkinligiga bo'lgan kafolatli huquqni qaror toptirish hamda aholining mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishdan iboratligini alohida ta'kidlanadi.

Menejmentning mohiyati ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar darajasi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga bog'liq holda o'zgaradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish va bozorning samarali o'zaro ta'sirini, davlat boshqaruvi va korxonalarining o'z-o'zini boshqarishning mutanosib nisbatda bo'lishini ta'minlovchi takomillashgan xo'jalik mexanizmini yaratishga yo'naltirilgandir.

Yalpi ichki mahsulot 8,2 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi – 7 foizga, pudrat qurilish ishlari hajmi 11,5 foizga, chakana tovar aylanmasi hajmi – 13,9 foizga o'sdi. Inflyatsiya sur'atlari rejalashtirilgan darajada saqlandi va 7 foizdan oshmadi. Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foiz miqdorida profitsit bilan ichro etildi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga barcha xarajatlarning 59,2 yo'naltirildi. Byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar bir yilda o'rtacha 26,5 foizga aholining real daromadlari esa – 17,5 foizga o'sdi. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining oshib borishi iqtisodiyot o'sishi barqaror yuqori sur'atlarining va uning tuzilmalarini diversifikatsiya-lashning asosiy manbai bo'ldi. 11,7 milliard dollarga teng miqdorda yoki 2011 yildagiga qaraganda 14 foiz ko'p investitsiyalar jalb etildi. Barcha investitsiyalarning 22 foizdan ortig'ini yoki 2,5 milliard dollardan ortiqni xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ulardan 79 foizdan ortig'i to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Barcha investitsiyalarning 74 foizga yaqini ishlab chiqarish qurilishiga yo'naltirildi. 205 ta investitsiya loyixasini amalga oshirish tugallandi.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda respublikani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risida // Xalq so'zi. 2013 yil 19 yanvar.

Jamiyat hayotining barcha tomonlari demokratik yangilanishi sharoitida asosiy masala iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirish. Boshqariladigan bozor bilan shaxs va jamoa manfaatlarini samarali bog'lash masalalaridan iboratdir. Nazariy va maliy nuqtai nazardan ishlab chiqarish egalari bo'lgan mehnatkashlar manfaatlari eng muhim manfaatlari eng muhim manfaat ekanligi, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtiruvchi qudratli harakatlantiruvchi kuch ekanligi shubhasizdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. "KHOREZM BRIKS" MCHJ misolida qurilish korxonalarida menejmentning zamonaviy usullari asosida samaradorlikni oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilar **bitiruv malakaviy ishining vazifalari** sifatida belgilandi:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada menejment samaradorligini oshirish;
- ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini rivojlantiruvchi menejmentning zamonaviy usullaridan foydalanish;
- qurilish korxonasi faoliyatini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish tizimini texnik va texnologik qayta jihozlash;
- qurilish korxonasida menejment samaradorligini oshirish orqali eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- qurilish korxonasida menejmentning zamonaviy usullaridan foydalanib qat'iy tejamkorlikka erishish;
 - qurilish korxonalarining xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilish orqari taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
 - qurilish korxonasida energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: nazariy mushohada, ilmiy abstraktsiya, qiyosiy va iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, dialektik va taqqoslash usullari.

Bitiruv malakaviy ishini predmeti Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonasiida menejmentning zamonaviy usullaridan foydalanib, ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy salohiyatini oshirish.

Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti – Xorazm viloyatida joylashgan “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning boshquruv va uning xo`jalik faoliyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, matnga qator jadvallar mavjud.

I-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QURILISH KORXONALARIDA MENEJMENTNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISHNING NAZARIY JIHATLARINI O'RGANISH

1.1. Korxonalar samaradorligini oshirishda menejment tushunchasi va uning mohiyati

Menejment - bu bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyatini yurituvchi har qanday tashqilotda resurslardan foydalanishda ratsional yo'l tutib, maqsimal foyda olishga qaratilgan professional mahorat bilan boshqaruvni amalga oshirish demakdir.

«Menejment» inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda «boshqaruv» mazmunidagi bir ma'nonigina anglatmaydi. Ingliz tilining Oksford lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra u boshqarish hokimiyati va san'ati; insonlar bilan munosabat usullari; resurslarni boshqarishda mohirlik va ma'muriy ko'nikmalarni bildiradi.

Shuning uchun ham u boshqaruv tizimi ob'ekti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda boshqaruvning zamonaviy usullarini, raxbarlik san'ati sirlarini urganishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, menejment mohiyatan bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqilotning barcha bo'g'inlarida ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shuning uchun hozirgi zamon menejmenti nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'zini-o'zi ro'yobga chiqaruvchi insonlarga tayanish;
- tashqilotlarga turli xil odamlardan iborat bitta yaxlit organizm sifatida qarash;
- boshqarishda iqtisodiy usullarni qo'llash;
- korxonani bozor talabi va konyunkturasiga yo'naltirish;
- tashqilotni doimo yangilatib turish, uning imkoniyatlarini atrof-muhitga moslashtirish;
- zarur resurslarni izlab topish va amalda qo'llash;
- xarajatlarni kamaytirish orkali yuksak natijalarga erishishga intilish va vaqtdan unumli foydalanishga asoslanish.

Zamonaviy menejment nazariyasining asosiy qoidalaridan biri xo'jalik sub'ektlarini boshqarish jarayonida, ya'ni faoliyat turiga qarab, qo'yilgan vazifalarni

bajarishda insonlar intellekti va mehnatidan samarali foydalanishga rahbarlik qilishni o'rganishdir.

Prezident Islom Karimov o'zining asarlarida mamlakatimizda boshlangan islohotlarning pirovard maqsadlarini shunday belgilab bergan: «Bizning bosh strategik maqsadimiz— bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iboratdir». Mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan bo'lib, uning ustivor yunalishlaridan biri xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning mustaqilligini ta'minlash, ulardagi mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga erishish hisoblanadi.

Boshqarish tamoyillari menejment sohasiga taluqli adabiyotlarda turlicha bayon etiladi. Ularni o'rganish va tahlil etish natijasida nafaqat bozor iqtisodiyotini umumiy boshqarish, balki korxonalarni boshqarishga taalluqli tamoyillarni umumlashtirish ham mumkin. Bizning fikrimizcha, bunday tamoyillarga demokratiya, xo'jalik foliyatini yuritish erkinligi, xo'jalik sub`ektini himoyalash kiradi.

Demokratiya tamoyili. Bozor iqtisodiyotini boshqarishda ushbu tamoyilga asoslanib yanada erkinlashtirishni amalga oshirish, birinchi navbatda, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning iqtisodiy erkinliklari hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash lozim bo'ladi.

Xo'jalik foaliyatini yuritish erkinligi tamoyili. Bunda demokratiya tamoyiliga asoslanib, birinchidan, fuqarolarga xo'jalik yuritish faoliyati va kasb tanlash erkinligini ta'minlash, ikkinchidan, korxonalar bilan erkin raqobatbardosh bo'lish va erkin shartnomalar tuzish, uchinchidan, fuqarolar mulklarini o'z hohishlariga ko'ra foydalanishlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Bu tamoyil asosida iqtisodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi, yuridik yoki jismoniy shaxs o'zi hohlagan joyda erkin holda ish olib borishi mumkin. Erkinlikni chegaralash faqat qonuniy yo'l bilan amalga oshiriladi.

Erkinlik tamoyili asosida ayrim sub`ektlarning o'z maqsadi va hohishi bilan erkin ravishda shartnoma to'zish huquqi belgilanadi. Shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ayniqsa tashqi shartnomalar tuzishda erkinlik tamoyiliga amal qilish xo'jalik yuritish sub`ektlarining tashabbuskorligini oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida **raqobat erkinligi** asosiy tamoyillaridan hisoblanadi va u bevosita xo'jalik yuritish erkinligi tamoyili bilan bog'liqdir. Chunki ular birbir-lari bilan raqobatbardosh bo'lishlari mumkin. Tadbirkorning bozorga kirib borishi uchun erkinlik yaratiladi. Shu bilan birga, raqobat erkinligi tamoyiliga asosan bozor qatnashchilari o'rtasida tanlash o'tkaziladi. Agar tadbirkor tovari bozor talablarini qondirmasa, u raqobatga bardosh bera olmay bozordan chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Xo'jalik sub`ektlarini himoyalash tamoyili. Ma`lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida shu vaqtgacha iste`molchilar himoyalani b kelingan. Ammo ishlab chiqaruvchilar himoyasiga kam e`tibor berilardi. Bozor munosabatlari sharoitida iste`molchi va ishlab chiqaruvchilarga bir xilda munosabatda bo'lish zarur. Shu sababli xo'jalik sub`ektlarini himoyalash tamoyili asosida ishlab chiqaruvchilarni himoyalash to'g'risida qonunning kabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Yukorida kurib chiqilgan tamoyillar bozor iqtisodiyotini boshqarishning nazariy tamoyillaridan hisoblanib, ulardan amaliyotda samarali foydalanish iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishda, uning rivojlanishida, ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligini oshirish va umuman iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Boshqarish tizimidagi o'zgarishlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida xo'jalik bo'g'inlarining qayta tarkibiy tuzilishi (restrukturizatsiya)ga e`tibor berishni talab etadi.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy holatini tahlil qilish, iqtisodiy o'sishga tasir etuvchi omillarni chuqur o'rganish, undagi iqtisodiy salohiyat darajasini aniqlashni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Erkin iqtisodiyotning mohiyatiga mos keluvchi va uning bir maromdagi faoliyatini ta`minlovchi huquqiy bazaning yaratilishi.

2. Ko'p ukladli iqtisodiyot asoslarini barpo etish uchun mulkchilik munosabatlarining takomillashtirilishi, turli mulk va xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanishi ta`minlanishi.

3. Ishlab chiqarishda xom ashyoni dastlabki qayta ishlashdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bulgan texnologik tsiklning amalda mavjud bo'lishiga erishilishi.

4. Xorijiy investitsiyalar uchun qulay iqtisodiy shart-sharoit yaratish orqali mamlakatning ichki ishlab chiqarish zaxiralarining o'zgartirilishi.

5. Asosiy e`tibor yangi texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga kirib kelishiga qaratilishi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida mulkchilikning turli shakllarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan yangi ishlab chiqarish munosabatlarining qaror topishi uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlardan keng foydalanilmokda.

Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 29 sentyabrdagi «Moliya-sanoat rpyphi to'g'risida»gi Qarorida respublikamizda tarmoq vazirliklarini xolding kompaniyalariga yoki moliya-sanoat guruhlariga aylantirishi hamda ularning keyinchalik bozor sharoitiga moslashuvchan bo'lishlari va faoliyat ko'rsata olishlari nuqtai nazaridan ayni bir vaqtning o'zida ular faoliyatining me`yoriy-huquqiy asosini takomillashtirishga ham e`tiborni qaratish nazarda tutiladi.

Moliya-sanoat guruhlarini quyidagi xususiyatlarga ega:

- turli tashkiliy-huquqiy shaklda bo'ladi;
- turli yunalishda faoliyat ko'rsatadi;
- ishtirokchilar tarkibiga va boshqarish tuzilmasiga binoan ham turlicha.

Moliya-sanoat guruhining tarkibi sanoat-ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-ishlab chiqarish korxonalarini, turli banklar, xolding va sug'urta kompaniyalarini, ilmiy-tadqiqot markazlarini hamda institutlarini, tajriba-konstruktorlik tashkilotlarini, savdo kom-

paniyalari va firmalari, qurilish, transport, investitsiya fondlari va shu kabi sub`ektlar barcha turlarini jalb qilish borasida samaradorlikka erishish maqsadida aktsiyalarni joylashtirishning ikki tizimidan foydalaniladi, ya`ni:

- guruh ishtirokchilarining maqsadiga muvofiq ravishda saralash;
- aktsiya va boshqa qiimmatli kog`ozlarni xarid qilishda imtiyozlardan foydalanish nazarda tutiladi.

O`tish davrida mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalarda boshqaruv samaradorligi, fikrimizcha, quyidagi yo`nalishlar bo`yicha ta`minlanishi lozim:

- iqtisodiy omillar va rag`batlantirish choralari asosida o`zini-o`zi boshqarishga o`tish;

- tarmoqlap va korxonalarni boshqarishning eng maqbul va o`tish davridagi o`zgarishlarga mos bo`lgan tuzilmalarini ishlab chiqarish;

-korxonalarni boshqarishda ularning xususiyatlariga mos keladigan, iqtisodiy erkinlik berishni ta`minlaydigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini rag`batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllarni vujudga keltirish;

- aktsiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv xodimlari mas`uliyatini oshirish uchun shaxsiy egalikning huquqiy kafolati sifatida ular uchun belgilab qo`yilgan aktsiyalar ulushini aniqlashtirish;

- boshqarishuv xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini yo`lga qo`yish;

- korxonalarda boshqaruvning ilg`or shakl va usullarini joriy etish jarayoniga texnik va texnologik ko`maklashish.


Iqtisodiyot tarmoklari va korxonalarni boshqarishni takomillashtirishda boshqaruvni izchil bosqichma-bosqich tashkil etish tamoyiliga amal qilish lozim. Buning ma`nosi shuki, boshqaruv tizimi isloh qilish jarayonida bir qancha bosqichdan o`tib, rivojlanadi va, shuningdek, uzluksiz takomillashib boradi. SHu o`rinda korxonaaarning iqtisodiy salohiyati mamlakatimizda ro`y berayotgan islohotlarning mazmuni va mohiyatiga monand ravishda shakllantirilishi hamda iqtisodiy salohiyatni boshqarishning zamonaviy usullarini ishga tushirish zarurati

muhimligini ta`kidlab o'tish darkor. Bo' jarayonlar mexanizmining samarali amal qilishi uchun dastlab korxonalarining hozirgi iqtisodiy ahvoli, faollik darajasi, ishlab chiqarish quvvati va ularning harakat bosqichlari masalalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

1.2. Qurilish korxonasida menejment samaradorligini oshirishning turlari va uning foydalilik xususiyatlari

An`analarga ko'ra g'arb biznesida menejment uchta sohada to'plangan: ishlab chiqarish, moliya, sotuv. Chizmada bu o'z aksini amaliy menejment bo'linmalarida ishlab chiqarish (korxonalar, firmalar, korporatsiyalar, va boshqalar, ublar mikroiqtsod nomi bilan ataladi), moliya va marketing menejmenti (sotuvni boshqarish tovarlar sotish, topgan) ishlab chiqarish menejmenti so'ngroq, ishlab chiqarish texnologiyasi yoki texnolog menejment sifatida aniqlashtiriladi.

Quyidagi keltirilgan rasmda menejment turlarini ikkita belgi asosida aniqlaydi: saviyasi (makro – va mikroiqtsodi) va uning xizmat sohasi bilan. Umumiy menejment makroiqtisod tavsifli, ya`ni barcha xo'jalik yuritish tizimi uchun taaluqlidir. U o'z ichiga uch xil menejmentni oladi: amaliy, innovatsion va strategik chizmadan ko'rinishicha amaliy menejment barcha boshqaruv sohalariga tarqalgan. Innovatsion menejment (yangilik yaratishni boshqarish) va strategik menejment (strategiya rejalashtirish) amaliy menejmentni takomillashtirishga yo'naltirilgan boshqaruv faoliyatidan iboratdir.



1.1-rasm. Qurilish korxonalarida bir xil shakldagi menejment turlari

Ishlab chiqarish menejmentida ikki xil faoliyat turi bo'lishi mumkin:

1. Ishlab chiqarishda hozirgi zamon turdagi materiallar, texnika va texnologiyani bunyod etish, o'zlashtirish ishlatish bo'yicha texnik faoliyat.
2. Ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solishini ta'minlash, harakatlarni tashkil qilish, to'g'ri yo'lga solish bo'yicha texnik faoliyat.

Texnik faoliyatda hal qiluvchi ahamiyatga ixtirosshunoslik ilmiy texnik bilimlar mutaxassislarga muhandislik tajribasi kerak bo'ladi. Bu turdagi faoliyatda eng asosiysi texnik g'oya bunyod etishdir. Menejning vazifasi - qobiliyatli odamlarni izlab topish va ular ijodiy mehnat qilishlari uchun qulay sharoit yaratishdir.

Boshqaruv faoliyatida qo'l ostidagilarning ijobiy harakatiga hisobiga yaxshi, ijobiy natijalarga erishish qobiliyatidir. Rahbarning san'atini ma'no xizmatchilarning harakatini tashkil qilish va to'g'ri yo'l boshlashdan iboratdir.

G'arbiy mutaxassilarning fikri bo'yicha korxonaning muvaffaqiyatli faoliyatining kaliti korxonada boshqaruvini samarali tashkil qilishdadir.

Bu boshqaruv zanjirini quyidagi bog'lanish bilan ifodalash mumkin:

1. Qurilish korxonada rahbarining harakati;

2. Ishlovchilar xulqi;

3. Jamoaning ishlab chiqarish faoliyati;

4. Korxonaning ishining natijasi.


Shunday qilib biz, ko'rib chiqayotgan tizimning asosiy bo'g'ini bu rahbarning bilimdonlik harakatidir, ya'ni firma menejerlardir. Sifatli menejment ishlovchilarni faol munosabatini uyg'otadi, ularning o'zaro munosabati samarali ishlab chiqarish faoliyat aylanadi.

Boshqaruv – bu tashkilotning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi uchun yo'naltirilgan jarayondir. Bu boshqaruv faoliyati harakatining ketma-ket bajarish jarayoni bo'lib, korxonaning bir qator ishlab chiqarish va ijtimoiy masalalarini echish va ularni amalga oshirish uchun zarur. Bu harakat boshqaruv vazifalarini bajarish deb ataladi.

«Funktsiya» so'zi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, bajarish, vazifa, faoliyat, majburiyat ma'nosini bildiradi.

Boshqaruv vazifalari – bu biror ob'ektga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat turi deb tushuniladi.

Boshqaruv vazifalari o'zining tarkibi bilan boshqaruv texnologiyasini bunyod etadi. Boshqaruv vazifasining ma'nosiga ikkita element kiradi: u avval tizimda nima qilinayotganini belgilasa, so'ngra savolga qanday qilib javob berishni bildiradi. Ilmiy menejmentning toifaviy to'plamida vazifalarga markaziy o'rin beriladi. Bu quyidagi chizmada keltirilgan.



1.2-rasm. Qurilish korxonalarida boshqaruv faoliyatini tashkil qilish vazifalari


Menejment taraqqiyot qilishda boshqaruv vazifasi boshqa vazifa ro'yxatlari paydo bo'ldi. Bularga quyidagi boshqaruv faoliyat turlari kiradi: masalalarni yechish, aloqa yo'llari, baholash va boshqalar.

G'arbiy menejmentning zamonaviy nazariyasida boshqaruv vazifalarini taqsimlash turkumlarida ikkita yondashuv mavjud:

Birinchi yondashuv boshqaruvni umumiy, universal vazifalarini ajratib ko'rsatish. Ular har qanday tashkilotda boshqaruv jarayonini mazmunini izhor etadi va sub`ekt boshqaruvi uni xususiyatga bog'liq emas. Bu guruh vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Rejalashtirish;
- Tashkil qilish;
- Muvofiqlashtirilgan va tarkibga solish;
- Nazorat;
- Rag'batlantirish.

Bu boshqaruv vazifalarini amalga oshirish tarkibini quyidagi chizmada ko'rish mumkin.



1.3-rasm. Qurilish korxonasi boshqaruv vazifalarini amalga oshirish

Ko'rinib turibdiki, rag'batlantirish vazifasi boshqa vazifalardan ustun.

Ikkinchi yondashuv menejment vazifalarining turkumlashishi boshqaruv ob'ekti xususiyatini baholashga asoslanadi. Bu holda ishlab chiqarish boshqaruvida butun bir tizimning aniq vazifalari AJratib ko'rsatiladi.

1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonasi ishlab chiqarish faoliyatida menejmentning zamonaviy usullarini shakllantirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda, boshqa MDH mamlakatlari singari, davlat va jamiyat qurilishining qanday tamoyillari va usullariga asoslanish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotini belgilashda qaysi yo'ldan borish masalasi ko'ndalang turar edi.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, «O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan

urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik»².

Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, moliyaviy inqirozning respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlardagiga qaraganda mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarining yopilishi orqali namoyon bo'lsa, bizda jahon xomashyo bozorlarida talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport daromadlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlarimizning xarid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylanmasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ko'plab etakchi olim va mutaxassislarimiz tomonidan iqtisodiyotimizda moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirini pasaytiradigan omillar mavjudligi ta'kidlanmoqda. Iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga inqiroz oqibatlari ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan darajada integratsiyalashmaganligi, mamlakatimizda katta hajmdagi xorijiy kapitalni ushlab turuvchi kompaniya va moliyaviy institutlarning yo'qligi, xususiylashtirish mexanizmi va shart-sharoitlari natijasida deyarli barcha ustav fondlarining korxonalarining real xususiy aktivlari bilan ta'minlanganligi kabi holatlar asosida inqirozning salbiy ta'siri u qadar katta bo'lmasligi mumkin. Aksincha, hozirgi inqiroz ehtimol tutilayotgan salbiy ta'sirlardan tashqari biz uchun ijobiy ta'sirlarga ham ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarni vujudga keltirishi mumkin. AQSH va Evropadagi investorlar aktsiyalardan bosh tortib, o'z aktivlarini bo'shatmoqdalar. Mohiyatiga ko'ra, qaytadan qandaydir ishga jalb etilishi zarur bo'lgan resurslarni bo'shatish jarayoni bormoqda. Demak, yangi bozorlarni, yangi imkoniyatlarni izlash boshlanadi. Investorlar kapital kiritishning muqobil yo'llarini qidiradilar. G'arb bozorlari

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 7-b.

turg'unlikka yuz tutgan chog'da rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlari o'sishning ijobiy dinamikasini ko'rsatadi. Shunday mulohazalardan kelib chiqqan holda, ko'plab investorlar O'zbekiston bozoriga e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas.

Shuningdek, jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligini qo'yidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanlanganligi;
- davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;
- O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;
- oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;
- aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;
- davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izohlanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish faoliyatida xo'jalik yuritishning tamoyil, usul va shakllari ko'lami bo'lib, ular yordamida ishlab chiqarish jarayoni va mehnat jamoasini boshqarish, mehnat jamoasini boshqarish munosabatlari tizimi bilan ishlab chiqarish asosiy vositalari o'rtasida aloqa va o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Bu murakkab tashkiliy-iqtisodiy tizim bo'lib, rejalashtirish xo'jalik hisobi, moddiy-texnika ta'minoti, boshqaruv tamoyillari va usullari, korxonalar kadrlari va ularning korxonani boshqarishdagi qatnashuvi, Fan-texnika taraqqiyoti va mahsulot sifatini oshirish, mehnat faoliyatini ijtimoiy rivojlantirish, mehnatni va unga haq to'lashni tashkil etish, kredit va hisob-kitoblar, tabiatdan foydalanish va atrof muhitni himoya qilish, hisobot, nazorat, korxonaning yuqori tashkilotlar va mahalliy

hokimiyat organlari bilan munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalarni qamrab oladi. Mehnat jamoasi faoliyatini, uning ishlash usullari va yo'llarini baholash uchun mos me'yor va ko'rsatkichlar, korxonani tartibga solish esa huquqiy hujjatlar, standart, me'yorlar vositasida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonani xo'jalik mexanizmi barcha bo'g'inlarining ishini yaxshilash bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda: korxonani boshqaruvining butun tizimi puxtalashtirilmoqda, boshqarishning tashkiliy tarkibi, tamoyil va usullari takomillashtirilmoqda; mehnatni tashkil etish haq to'lashning ilmiy asoslari joriy etilmoqda; korxonani faoliyati me'yor va ko'rsatkichlari o'zgartirilmogda; korxonani boshqarishda oshkorlik va demokratizm kengayishi, har bir ishlovchi daromadi uning qo'shgan muvaffaqiyatli hissasi va korxonani faoliyati natijasi bilan aniqlanishi muvaffaqiyatli unumdor faoliyat uchun asos yaratilmoqda, qator iqtisodiy va tarbiyaviy masalalar hal etilmoqda. SHu bilan birga korxonani moddiy-texnika bazasini kuchaytirish uchun sharoit yaratish, ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlardan to'liq foydalanish, aylanma fondlar to'liq tiklanishiga erishishi kerak. Buning uchun to'liq xo'jalik hisobi va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash sharoitida, o'z-o'zini boshqarish asosida yuqori natijalarga erisha oluvchi barqaror mehnat jamoasini shakllantiradi va kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash haqida g'amxo'rlik qiladi. Korxonani o'zi uchun mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun oliy o'quv yurtlariga o'z vaqtida, belgilangan miqdorda haq to'laydilar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida korxonaning fan-texnika taraqqiyoti sohasidagi faoliyati ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish, uni tashkil etishni yaxshilash, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Qurilish korxonasi faoliyati natijalariga baho berishning muhim ko'rsatkichi mahsulot (ish, xizmat) sifatidir. Qurilish korxonasi o'z mahsuloti (ish, xizmat) sifatini

yaxshilash maqsadida texnologik intizomga standart, texnik sharoitga qat'iy va mustahkam bo'lishini ta'minlashi lozim.

Qurilish korxonasi ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishi, asbob-uskunalar ish vaqtini ko'paytirishi, uni ilg'or texnika va texnologiya asosida yangilab borishi va buning natijasida mehnat unumdorligi ortishiga erishish lozim.

Korxonani texnikaviy jihatdan qayta jihozlash korxonani rivojlantirish, fan, texnika fondi hamda bank kreditlari hisobidan amalga oshiriladi. Moddiy-texnikaviy ta'minotni belgilash uning samarali va barqaror ishlashi moddiy resurslardan samarali foydalanish zaruratidan kelib chiqadi. Korxonada moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini aniqlab, ularni ulgurji bozoridan sotib oladi. U iste'molchilar, savdo va moddiy ta'minot korxonalariga xo'jalik shartnomasiga asosan mahsulot sotadi va xizmat ko'rsatadi yoki o'z savdo shahobchalarida ularni sotishi mumkin. Korxonada faoliyatini baholovchi muhim me'yor buyurtma va shartnomalarni o'z vaqtida bajarishdir. Korxonada talabni o'rganishi va reklamani amalga oshirishi lozim.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, unda ishlovchilar xo'jalik va mehnat faoliyatini kuchaytirishning muhim omili bo'lgan faol ijtimoiy siyosat olib borish korxonada faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lmog'i lozim. U, shuningdek, mehnatkashlar, ular oilasi, urush va mehnat faxriylarining mehnat va turmush sharoitini yaxshilash haqida g'amxo'rlik qilishi lozim. Korxonada jamoasi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari uning faoliyati natijalari, sof foyda bilan belgilanadi.

Korxonada o'z ijtimoiy faoliyatini mahalliy tuman va shahar hokimiyatlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Yangi xo'jalik mexanizmini shakllantirishni butun boshqaruv tizimini isloh qilmay amalga oshirib bo'lmaydi. Bu islohot faqat korxonalar iqtisodiy hayoti, boshqaruvning markaziy bo'g'inlari tarkibi va vazifalar, iqtisodiy ta'sir va rag'batlantirishning tashqi ko'rinishini o'zgartiribgina qolmay, balki iqtisodiy tizim munosabatlarini yangilashi ham lozim.

II-BOB. QURILISH KORXONASIDA MENEJMENT SAMARADORLIGI VA UNING XO'JALIK FAOLIYATI TAHLILI ("KHOREZM BRIKS" MCHJ MISOLIDA)

2.1. "KHOREZM BRIKS" MCHJ ning asosiy texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning to'lovga qobiliyatlilik tahlili


2.1-jadval

"KHOREZM BRIKS" MCHJning 2010-2012 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2010	2011	2012	Farq (+;-)	O'zgarish nis. %
	1	2	3	4	5	6	7
1	Sotishdan tushim	ming so'm	356892	401896	783624	381728	195
2	Ishlab chiqarish tannarxi	ming so'm	280152	312063	698025	385962	224
3	YAlpi foyda	ming so'm	76740	89833	85599	-4234	95
4	Foydadan soliq	ming so'm	15620	17560	18256	696	104
5	Ishchilarni o'rtacha soni	kishi	42	42	38	-4	90
6	Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot	ming so'm	8497,4	9569,0	20621,7	11052,732	216
7	Sof foyda	ming so'm	2501	6374	7846	1472	123
8	Ish haqi fondi	ming so'm	390562	495562	563623	68061	114
9	Bir ishchiga o'rtacha ish haqi	ming so'm	9299,1	9568,95	20621,68	11052,732	216
10	Aylanma mablag'lar miqdori	ming so'm	1856213	2340313	2378386	38073	102
11	Bir kunlik tushum	ming so'm	991,4	1116,4	2176,7	1060,4	195
12	Debitorlik qarzlari	ming so'm	60235	63985	133606	69621	209
13	Kreditorlik qarzlari	ming so'm	38025	41774	105911	64137	254

2.1 - jadvalga keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra "KHOREZM BRIKS" MCHJning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan, sotishdan tushum 2010 yilda 356892 ming so'mni 2011 yilda 401896 ming so'mni, 2011 yilda 783624 ming so'mni tashkil

qilgan. Bajarilgan ishlarning ishlab chiqarish tannarxi 2010 yilda 280152 ming so'mni, 2011 yilda 312063 ming so'mni, 2012 yilda 698025 ming so'mni tashkil qildi. Yalpi foyda 2010 yilda 76740 ming so'mni, 2011 yilda 89833 ming so'mni, 2012 yilda 85599 ming so'mni tashkil qildi. Sof foyda 2010 yilda 2501 ming so'mni, 2011 yilda 6374 ming so'mni, 2012 yilda 7846 ming so'mni tashkil qildi.



2.1 -rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJning 2010-2012 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari diagrammasi

Korxonaning to'lovga qobiliyatligi tahlili.

Likvidlik korxonaning o'z joriy aktivlari hisobiga o'zining qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarni bajarishga layoqatliligini ko'rsatadi. Balans aktivi «realizatsiya qilinadigan», ya'ni mol-mulkni istalgan vaqtda naqd pulga aylantirsa bo'ladi. Balans aktivining moddalari yo'q bo'lib ketmay, balki bir shakldan boshqa shaklga o'tadi. Balans passivining moddalari «uziladigan», ya'ni ular qarzdorlik uzilishi tufayli «yo'q bo'lish» qobiliyatiga ega. Mana shunday «likvidlik» passivda realizatsiya qilinadigan aktivlar bilan aks ettiriladigan majburiyatlarni to'lashni anglatadi.

Balans likvidligini aniqlash dolzarbligi korxonalarni bankrotlik oqibatida tugatish muammosi yuzaga keladigan bozor sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Balansning likvidlik darajasini aniqlash uchun aktivning ma'lum muddatga realizatsiya qilinadigan qismi passivning shu muddatga to'lash lozim bo'lgan qismiga taqqoslanadi. Agar aktiv moddalari realizatsiyasi majburiyatlarni to'lash uchun kifoya qiladigan summani bersa, bu ma'noda balans likvid, ya'ni korxonaga to'lovga layoqatli, aks holda esa u to'lovga layoqatsiz hisoblanadi.

Bundan tashqari, likvidlik korxonaning kreditga layoqatliligini ham tavsiflashi mumkin. Ilgari olingan kreditlarni hisob-kitobi o'z vaqtida tartib bilan amalga oshiradigan, zarur bo'lganda turli manbalardan mablag'larni safarbar etishga qodir bo'lgan korxonaga kreditga layoqatli qarzdor hisoblanadi.

Moliyaviy boshqarish mahorati hisob varaqalarda minimal summadagi mablag' saqlagan holda qolgan qismini tez realizatsiya qilinadigan aktivlarda saqlashda namoyon bo'ladi.

Hisob-kitob hisob raqamda pul mablag'lari miqdori qanchalik sezilarli bo'lsa, to'lovlar va majburiyatlarga kifoya qiladigan mablag'lar bilan hisob-kitob qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Ammo pul mablag'lari zaxiralar va xarajatlarda, ya'ni muomalada bo'lsa, ularni naqd pulga aylantirish mumkin. To'lovga layoqatsizlik tasodifiy, muvaqqat, uzoq muddatli, surunkali bo'lishi mumkin. Buning sabablari moliyaviy resurslar bilan etarlicha ta'minlanmaganlik: mahsulot realizatsiyasi rejasining bajarilmaganligi; aylanma mablag'lar tarkibining oqilona


emasligi; to'lovlarning o'z vaqtida kelib tushmasligi; katta miqdordagi muddati o'tgn qarzarlar va boshqalarda bo'lishi mumkin.

2.2 - jadval.

“KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi likvidligi tahlili

№	ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	Farq (+;-)
	1	2	3	4	5
1	To'lash koeffitsienti	1,5	2,14	4,88	2,74
2	Tez likvidlik koeffitsienti	0,86	1,09	1,31	0,22
3	Mutloq likvidlik koeffitsienti	0,01	0,01	0,04	0,03
4	Ishlab turgan sarmoyasi harakatchanligi	0,91	0,92	0,96	0,04
5	Umumiy sarmoya harakatchanligi	1,01	1,12	4,81	3,69

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, “ KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi likvidligi tahlil qilingan. Bunda to'lash (qoplash) koeffitsienti, 2010 yilda 1,5 koeffitsientni, 2011 yilda 2,14 koeffitsientni 2012 yilda 4,88 koeffitsientni tashkil etgan. Tez likvidlik koeffitsienti 2010 yilda 0,86 koeffitsientni, 2011 yilda 1,09 koeffitsientni 2012 yilda 1,31 koeffitsientni tashkil etgan. Mutloq likvidlik koeffitsientni 2010 yilda 0,01 koeffitsientni, 2011 yilda 0,01 koeffitsientni, 2012 yilda 0,04 koeffitsientni tashkil qilgan. Ishlab turgan sarmoya harakatchanligi 2010 yilda 0,91 koeffitsientni, 2011 yilda 0,92 koeffitsientni, 2012 yilda 0,96 koeffitsientni tashkil etgan. Umumiy sarmoya harakatchanligi 2010 yilda 1,01 koeffitsientni, 2011 yilda 1,12 koeffitsientni, 2012 yilda 4,81 koeffitsientni tashkil qilgan.



2.2 - rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010-2012 yillardagi likvidligi diagrammasi

Likvidlikning shu yo'sinda amalga oshirilgan hisob – kitobi korxonaning turli davrlardagi balansini, shuningdek, turli korxonalar balanslarini ularning likvidligini baholash maqsadida qiyoslash imkonini beradi.

Aktiyadorlik jamiyatining to'lash qobiliyati va uning bankrot bo'lishi yoki bo'lmaslik ehtimoli to'g'risidagi xulosalar uning likvidlik ko'rsatkichlari asosida chiqariladi. Odatda, to'lovga qodir bo'lgan aktsiyadorlik jamiyati moliyaviy jihatdan ham barqaror bo'lishi kerak.

2.2. “KHOREZM BRIKS” MCHJning menejment samaradorligiga ta`sir etuvchi moliyaviy ko`rsatkichlarni tahlili

Moliyaviy natijalar tahlili

Moliyaviy natija - korxonaning foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakunidir. Korxonaning moliyaviy hisobotida moliyaviy natijalar 2-shakl «Moliyaviy natijalar to`g`risida hisobot» asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi. Buxgalteriya balansining balans passivi 1-bo`limi «o`z mablag`lari manbalari»da taqsimlanmagan foyda ko`rsatiladi.

O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tasdiqlagan Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi nizomga ko`ra foydaning quyidagi ko`rsatkichlari farqlanadi.

- mahsulotni sotishdan yalpi foyda;
- asosiy faoliyatdan ko`rilgan foyda:
- umumxo`jalik faoliyatidan ko`rilgan foyda:
- soliqlarni to`lashdan oldingi foyda:
- sof foyda:

Mahsulotni sotishdan yalpi foyda (YAF) korxonaning mahsulotni sotishdan olgan daromadini tavsiflaydi va mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o`rtasidagi farq sifatida quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi;

$$\mathbf{YAF = ST-MT} \qquad \mathbf{(1)}$$

Mahsulot sotishdan sof tushum (ST)-mahsulotni sotishdan qo`shilgan qiymat solig`i va aktsiz solig`i chiqarilgandan keyingi sof tushum summasidir. Bu ko`rsatkich korxonaning mahsulotni sotishdan ko`rgan foydasidir.

Sotilgan mahsulot tannarxi (MT)-korxonaning mahsulotni chiqarish maqsadidagi bevosita va bilvosita, moddiy va mehnat sarflarini o`z ichiga oladi.

2.3 - jadval.


“KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi moliyaviy natijalari tahlili

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	Farq (+;-)
1	Yalpi foyda	76740	89833	85599	-4234
2	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	4526	7985	8256	271
3	Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda	4526	7985	8256	271
4	Foyda solig'i to'lashdan oldingi foyda	4526	7985	8256	271
5	Sof foyda	2501	6374	7846	1472
6	O'z sarmoyasi rentabelligi	0,2	0,3	0,3	0,1
7	Asosiy sarmoya rentabelligi	0,19	0,27	0,32	0,05
8	Mahsulotni sotish rentabelligi	3,12	2,56	1,18	-1,38
9	Xarajatlar rentabelligi	12,52	28,79	1,18	-27,60
10	Asosiy sarmoyani o'zini qoplashi	376,90	373,72	316,63	-57,09
11	O'z sarmoyasining o'zini qoplashi	375,51	367,17	303,13	-64,03

2.3 - jadvalda “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi moliyaviy natijalari tahlil qilingan. Yalpi foyda 2010 yilda 76740 ming so'mni, 2011 yilda 89833 ming so'mni, 2012 yilda 85599 ming so'mni tashkil qilgan. Asosiy faoliyatdan olingan foyda 2010 yilda 4526 ming so'mni, 2011 yilda 7985 ming so'mni, 2012 yilda 8256 ming so'mni tashkil qilgan. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda 2010 yilda 4526 ming so'mni, 2011 yilda 7985 ming so'mni, 2012 yilda 8256 ming so'mni tashkil qilgan. Foyda solig'i to'lashdan oldingi foyda ham

xuddi shu ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Sof foyda 2010 yilda 2501 ming so'mni, 2011 yilda 6374 ming so'mni, 2012 yilda 7846 ming so'mni tashkil qilgan. O'z sarmoyasi rentabelligi 2010 yilda 0,2 ni, 2011 yilda 0,3 ni, 2012 yilda ham 0,3 ni tashkil qilgan. Asosiy sarmoya rentabelligi 2010 yilda 0,19ni, 2011 yilda 0,27ni, 2012 yilda 0,32 ni tashkil qilgan.



2.3 -rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi moliyaviy natijalarining chiziqli diagrammasi

Korxonaning moliyaviy barqarorlik tahlili

Aktivlar (asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag'lar)ga qo'yilgan mablag'larni o'z mablag'lari hisobiga qoplaydigan, noo'rin debitorlik va kreditorlik qarzlarga yo'l qo'ymaydigan hamda o'z majburiyatlariga o'z vaqtida to'laydigan

korxonada moliyaviy barqaror korxonada hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik o'z va qarz mablag'lari nisbati bilan aniqlanib, qator ko'rsatkichlar yordamida hisoblanadi.

Mustaqillik, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy qaramlik koeffitsientlarini moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'r-satkichlari deb qarash mumkin.

Mustaqillik koeffitsienti. Must. k.k. xo'jalik yurituvchi sub`ekt moliyaviy holatining mablag'larining qarz manbalariga qaram emasligini tavsiflaydi. U o'z mablag'larini xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Must.k.} = \text{O'S} / \text{S} \quad (2)$$

Mustaqillik koeffitsientning o'sishi moliyaviy musta-qillikning ortishi va moliyaviy qiyinchiliklar xavfining kamayishini ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti (M.bar.k.). O'z va qarz mablag'lari nisbatidir. U quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{M.bar.k.} = \text{O'S} / \text{JS} \quad (3)$$

O'z mablag'larining qarz mablag'laridan ortiqdigi xo'jalik yurituvchi sub`ekt moliyaviy barqarorligining etarlicha za-xirasiga ega ekanligini hamda tashqi moliyaviy manbalardan nisbatan xoli ekanligini ko'rsatadi.


Moliyaviy qaramlik koeffitsienti. M.har.k. moliyaviy qaramlik va moliyaviy qiyinchiliklar xavfining ko'payishi yoki kamayishini ko'rsatadi. U o'z mablag'larining 1 so'miga qancha xo'jalik mablag'lari to'g'ri kelishini ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha xo'jalik mablag'larining o'z sarmoyasiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$\text{M.har.k.} = \text{S} / \text{O'S} \quad (4)$$

O'z sarmoyasi harakatchanligi. O'z.q. - ishlab turgan va o'z sarmoyasi nisbati bo'lib, u o'z aylanma mablag'larining (ayiruv muddati o'tgan debitorlik qarzlari) o'z mablag'laridagi ulushini tavsiflaydi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{O's.q.} = \text{IshS} / \text{O'S} \quad (5)$$

Moliyaviy barqarorlikni boshqa ko'rsatkilar ham tav-siflashi mumkin, ulardan korxonaning moliyaviy holati to'g'risida xulosalar chiqarishda va moliyaviy ahvolni tahlil qilishda foydalaniladi. YUqoridagi formulalarni qo'llab chiqqan ko'rsatkichlarni quyidagi jadvalga kiritamiz.



2.4 -rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi moliyaviy barqarorligi diagrammasi

2.4 - jadval.**“KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi moliyaviy barqarorligi tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	Farq (+;-)
	1	2	3	4	5
1	Mustaqillik koeffitsienti	0,82	0,98	0,96	-0,02
2	Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	46,20	56,02	22,46	-33,57
3	Moliyaviy qaramlik koeffitsienti	1,01	1,02	1,04	0,02
4	O'z sarmoyasi harakatchanligi	0,16	0,17	0,17	0,00
5	Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsienti	0,01	0,02	0,04	0,02
6	Jalb qilingan va o'z sarmoyalari nisbati koeffitsienti	0,01	0,02	0,04	0,02

2.4 - jadvalda “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010-2012 yillardagi moliyaviy barqarorligi tahlil qilingan. Mustaqillik koeffitsienti 2010 yilda 0,82 koeffitsientni, 2011 yilda 0,98 koeffitsientni, 2012 yilda 0,96 koeffitsientni tashkil qilgan. Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti 2010 yilda 46,20 koeffitsientni, 2011 yilda 56,02 koeffitsientni, 2012 yilda 22,46 koeffitsientni tashkil qilgan. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti 2010 yilda 1,01 koeffitsientni, 2011 yilda 1,02 koeffitsientni, 2012 yilda 1,04 koeffitsientni tashkil etgan. O'z sarmoyasi harakatchanligi 2010 yilda 0,16 koeffitsientni, 2011 yilda 0,17 koeffitsientni, 2017 yilda 0,17 koeffitsientni tashkil etgan. Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsienti 2010 yilda 0,01 koeffitsientni, 2011 yilda 0,02 koeffitsientni, 2012 yilda 0,04 koeffitsientni tashkil etgan.

Aylanma mablag'larining holati va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlili

Aylanma mablag'lar balans aktivining ikkinchi bo'limida aks etib, aylanishdagi (aylanma aktivlardagi) pul mablag'larida ifodalandi. Asosiy fondlardan farqli o'laroq aylanma mablag'lar bir ishlab chiqarish tsiklida to'la o'zlashtirilib, o'z qiymatlarini tayyor mahsulotga olib o'tadi va ham buyum-natura, ham qiymat ifodasida qayta tiklanadi, shu tariqa bevosita harakatda bo'ladi.

Mablag'larning aylanish tezligi-korxonada ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyat darajasining kompleks ko'rsatkichidir. Aylanishlar miqdorining ko'payishiga ishlab chiqarish bilan muomalada bo'lish vaqtining qisqartirilishi hisobiga erishiladi. Ishlab chiqarish vaqti texnologik jarayon bilan qo'llanilayotgan texnikaning xususiyatiga o'zaro bog'langandir. Uni qisqartirish uchun texnologiyani shakllantirish, mehnatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Muomalada bo'lish vaqtini qisqartirishga ham ixtisoslashtirishni rivojlantirish, zavodlararo bevosita aloqalarni rivojlantirish hujjatlari va hisob-kitoblarning aylanishini tezlashtirish orqali erishiladi. Barcha aylanma mablag'larning unumli aylanuvchanligi aylanma mablag'lar ayrim tarkibiy qismlari aylanuvchanligidan tarkib topadi. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi ularning me'yorlaridan chiqishi bilan xususiyatlanadi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilayotib, ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish, bu ko'rsatkichlarni o'tgan yil ma'lumotlari bilan qiyoslash kerak. qiyoslanayotgan omillarni o'rganish asosida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish yo'llari belgilanadi.

Aylanma mablag'larining (marotabalaridagi) aylanuvchanligi - sotuvdan tushumning aylanma mablag'larning shu davrdagi o'rtacha qoldig'i nisbatidir:

(Sotishdan olingan sof tushum / Aktiv qismining (1-bo'limi)

50 N 2 / 300 N 1

(6)

Aylanma mablag'larning (kunlardagi) aylanuvchanligi - shu davrdagi kunlar miqdorining aylanma mablag'larning marotabalaridagi aylanuvchanligiga nisbatidir.

Aylanma mablag'lar rentabelligi - sof foydaning aylanma mablag'larning shu davrdagi o'rtacha qoldiqlariga nisbatidir:

200 N 2 / 300 N 1

(7)

Bir kunlik tushum - butun davr mobaynidagi sotuvdan tushumning shu davrdagi kunlar miqdoriga nisbatidir.

To'g'rilangan ko'rsatkich - haqiqatdagi sotish chog'ida aylanma mablag'lar va o'tgan yili aylanma mablag'lar aylanuvchanligi bilan qiyoslash mahsulotni sotishdan tushum va aylanma mablag'larning yillik o'rtacha miqdorining aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezligiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Aylanma mablag'larga nisbatan sotishdan tushum qanchalik yuqori bo'lsa, ularning aylanuvchanligi shuncha yuqori bo'ladi va oborotdan shuncha ko'p aylanma mablag'lar bo'shatib olinadi.

2.5 - jadval.


**“KHOREZM BRIKS” MCHJning 2010-2012 yillarda aylanma mablag’lardan
foydalanish samaradorligi tahlili**

(ming so’m)

№	Ko’rsatkichlar	2010 yil	2011 Yil	2012 yil	Farq (+,-)	O’zg. sur. %da
Mutloq ko’rsatkichlar						
1	Sotishdan tushum, ming so’m	356892	401896	783624	381728	195
2	Aylanma mablag’larning o’rtacha qiymati	1856213	2340313	2378386	38073	102
3	Sof foyda, ming so’m	2501	6374	7846	1472	123
4	YAlpi daromad, ming so’m	76740	89833	85599	-4234	95
5	Debitorlarning o’rtacha yillik qiymati, ming so’m	60235	63985	133606	69621	209
Nisbiy ko’rsatkichlar						
4	Aylanma mablag’larning aylanuvchanligi kunlarda, (2q x 360 : 1q)	1872	2096	1092	-1004	52
5	Aylanma mablag’larning aylanuvchanlik koeffitsienti, marta, (1q : 2q)	0,92	0,17	0,33	0,16	194
6	Aylanma mablag’larning rentabelligi, % (3q x 100 : 2q)	0,13	0,27	0,33	0,06	122
7	Aylanma mablag’larning daromadliligi, % (4q x 100 : 2k)	4,13	3,84	3,59	-0,25	93
8	Debitorlarning aylanuvchanligi, kunlarda (5q x 360 : 1q)	60,7	57,3	61,4	4,1	107

2.5 - jadvalda “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010-2012 yillarda aylanma mablag’lardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Sotishdan tushum 2010 yilda 356892 ming so’mni, 2011 yil 401896 ming so’mni iborat bo’lgan bo’lsa, 2012 yilda 783624 ming so’mni tashkil qilgan. Sof foyda 2010 yilda 2501 ming so’mni, 2011 yil 6374 ming so’mni tashkil qilgan bo’lsa, 2012 yilda esa 1472 ming so’mga oshib,

7846 ming so'mni tashkil qilgan. Aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i 2010 yil 1856213 ming so'mni, 2011 yil 2340313 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda 2378386 ming so'mni tashkil qilgan.



2.5 – rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJning 2010-2012 yillarda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi diagrammasi

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlili

Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi ko'p jihatdan asosiy fondlardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Asosiy fondlardan qanchalik yaxshi foydalanilsa, mahsulot ishlab chiqarish shunchalik ko'p, mehnat unumdorligi shunchalik yuqori, chiqarilayotgan mahsulot tannarxi kam, foyda va rentabellik yuqori bo'ladi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi fond samaradorligi, ko'p foyda talab qilinishi, rentabellik, shuningdek, mahsulot hajmi va asosiy fondlarni takroriy ishlab chiqarishga harajatlarning kamayishi, mehnat vositalari xizmat muddatlarining uzayishi bilan tavsiflanadi.

Fond samaradorligi-shu davrdagi asosiy fondlar o'rtacha qiymatining 1 so'miga sotilgan mahsulot hajmidir. Bu ishlab chiqarish asosiy fondlaridan foydalanishning

umumlashtiruvchi ko'rsatkichidir. Fond samaradorligining miqdori va o'zgarishiga korxonaga bog'liq bo'lgan va bo'lmagan ko'pdan-ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishini yaxshilashdan iborat.

Asosiy vositalar rentabelligi sof foydaning shu davrdagi asosiy vositalar o'rtacha qiymatiga nisbati sifatida belgilanadi.

2.6 - jadval.

“KHOREZM BRIKS” MCHJning 2010-2012 yillarda asosiy fondlarning holati va ulardan foydalanish tahlili

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	Farq (+,-)	D'zg. sur. %da
Mutloq ko'rsatkichlar						
1	Sotishdan tushum, ming sum	356892	401896	783624	381728	195
2	Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati, ming sum	185023	1942057	1967782	25725	101
3	Xodimlarning o'rtacha ruyxatdagi soni, kishi	42	42	38	-4	90
Nisbiy ko'rsatkichlar						
4	Asosiy vositalarning samaradorligi, sum (1k:2k)	0,19	0,21	0,39	0,18	186
5	Mehnat unumdorligi, ming so'm (1k:3k)	8497,4	9568,9	20621,7	11052,8	215
6	Asosiy vositalarning ta'minlanganligi, kishi (3k:2k) x 1000	0,02	0,02	0,02	0	100

2.6 - jadvalda “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010-2012 yillarda asosiy fondlarning holati va ulardan foydalanish tahlil qilingan. Sotishdan tushim 2010 yilda 356892 ming so'mni, 2011 yilda 401896 ming so'mni, 2012 yilda 783624 ming so'mni tashkil qilgan. Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati 2010 yilda 185023 ming so'mni, 2011 yilda 1942057 ming so'mni, 2012 yilda 1967782 ming so'mni tashkil qilgan. Asosiy vositalar samaradorligi 2010 yilda 0,19 so'mni, 2011 yilda 0,21 so'mni, 2012 yilda 0,39 so'mni tashkil qilgan. Mehnat unumdorligi 2010 yilda 8497,4 ming so'mni, 2011 yilda 9568,9 ming so'mni, 2012 yilda 20621,7 ming so'mni tashkil qilgan.

2.3. “KHOREZM BRIKS” MCHJ rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

Rentabellik ko'effitsientlari turkumi. Rentabellik ko'effitsientlari korxonaning faoliyati qanchalik daromadlilikini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar moliyaviy hisobotdan ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun qiziqarli bo'lib. Kompaniya resurslaridan foydalanish samaradorligini, shuningdek investitsion jozibadorlikni belgilaydi. U yoki bu korxonaga faoliyatiga joylashtirilgan sarmoyalarning rentabelligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar sirasiga zayom va xususiy sarmoyaning rentabelligi kiradi. Bu ko'rsatkichlarning iqtisodiy talqini ayon: zayom (xususiy) sarmoyaning bir so'miga necha so'm foyda to'g'ri keladi (hisoblab chiqish chog'ida balansdagi yoki sof foydadan foydalanish mumkin).

Maydonning vaqt jihatidan rentabelligini tahlil qilayotib, bu ko'rsatkichlarning asosli xulosalarini shakllantirish uchun ahamiyatli uch muhim xususiyatni e'tiborga olmoq zarur.

Birinchi, xususiyat korxonaga faoliyatining vaqt jihati bilan bog'liq. CHunonchi, mahsulotni sotish rentabelligining ko'effitsienti hisobot davridagi ishlarning natijadorligi bilan belgilanadi: u uzoq muddatli investitsiyalarning ehtimol tutilgan va rejalashtirilgan samarasini aks ettirmaydi. Agar korxonaga katta investitsiyalar talab qiluvchi yangi istiqbolli texnologiyalar va mahsulot turlariga o'tsa rentabellik ko'rsatkichlari vaqtincha pasayishi mumkin.

Ikkinchi xususiyat xavf-xatar muammosi bilan bog'liq jumladan, xususiy sarmoya rentabelligi ko'rsatkichining sur'ati va maxrAJi turli xarid qobiliyatidagi pul birliklarida ifodalangan. Ko'rsatkich sur'ati, ya'ni foyda o'sib boradi, u asosan o'tgan davrdagi faoliyat natijalarini hamda tovarlar va xizmatlar bahosining shakllangan darajasini aks ettiradi. Ko'rsatkich maxrAJi, ya'ni xususiy sarmoya bir necha yillar mobaynida to'plangan. U daftardagi (hisob) baholash bilan ifodalangan bo'lib, joriy bahodan g'oyat keskin farq qilishi mumkin. Binobarin, xususiy sarmoya rentabelligi ko'effitsientining yuqori qiymati korxonaga investitsiyalangan sarmoyaning yuksak samaradorligiga hamisha ham teng qiymatda bo'lavermaydi: moliyaviy xususiyatga ega qarorlarni qabul qilish chog'ida, binobarin, bu ko'rsatkichni nazarda tutish zarur, biroq korxonaning bozor narxi (bozor sarmoyalanishuvi)ni ham e'tiborga olmoq lozim.

Rentabellik ko'rsatkichlari – korxonada moliyaviy holatini qiyosiy tahlillash va baholashning majburiy elementlari hisoblanuvchi korxonada foydasi va daromatini shakllantirish omilining muhitining muhim tavsifidir.

Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkinki, ularning hisob-kitobi:

- foyda (daromad);
- ishlab chiqarish aktivlari;
- naqd pul mablag'lari oqimi asosida amalga oshiriladi.


Ayrim omillarning rentabellik darajasiga ta'sirining sonli baholanishi zanjirli o'rin almashtirish usuli yoki omilning ta'sirlarni baholashning integral usuli bo'yicha belgilanadi.

To'laroq tahlil etish uchun quyidagi omillar harakatini harakatda tadbiiq etish zarur:

- sotilgan mahsulot pul birligiga to'g'ri keladigan foydaning ko'pashi;
- aktivlardan samaraliroq foydalanish;
- sarmoya moliyaviy tarkibining o'zgarishlari.

**“KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2008-2010 yillardagi rentabellik
koeffitsientlari tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	Farq
					(+;-)
	1	2	3	4	5
1	Sotish rentabelligi	84,01	86,02	89,08	3,06
2	Sotuvlarning foydaliligi:				
	-yalpi foyda hisobidan	7,56	8,06	10,92	2,86
	-sof foyda hisobidan	0,82	0,89	1,00	0,11
3	Asosiy faoliyatning rentabelligi	101,56	108,50	112,26	3,76
4	Aktivlarning rentabelligi	0,29	0,23	0,32	0,09
5	Xususiy sarmoya rentabelligi	0,25	0,28	0,33	0,05
6	Asosiy sarmoya rentabelligi	0,32	0,29	0,40	0,11
7	Doimiy sarmoya rentabelligi	0,25	0,28	0,33	0,05
8	Aylanma sarmoya rentabelligi	1,12	1,25	1,52	0,27
9	Zayom sarmoyasi rentabelligi	6,45	7,23	7,41	0,18
10	Soliq bo'lagi	89,25	91,23	98,25	7,02
11	Real asosiy sarmoya rentabelligi:				
	-sof foyda bo'yicha;	0,32	0,35	0,40	0,05
	-sof sotuvlar bo'yicha	0,29	0,30	0,34	0,04
12	Investorlangan sarmoya rentabelligi	31,25	29,23	39,82	10,59



2.8-rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi rentabellik koeffitsientlari diagrammasi.


2.7-jadvalda “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010-2012 yillardagi rentabellik koeffitsientlari tahlil qilingan. Sotish rentabelligi 2010 yilda 87,01 koeffitsientni, 2011 yilda 86,02 koeffitsientni, 2012 yilda esa 89,08 koeffitsientni tashkil etdi. Sotuvlarning foydaliligi: yalpi foyda hisobidan 2010 yilda 7,56 koeffitsientni, 2011 yilda 8,06 koeffitsientni, 2012 yilda esa 10,92 koeffitsientni, sof foyda hisobidan 2010 yilda 0,82 koeffitsientni, 2011 yilda 0,89 koeffitsientni, 2012 yilda 1 koeffitsientni tashkil etgan. Asosiy faoliyatning rentabelligi 2010 yilda 101,56 koeffitsientni, 2011 yilda 108,50 koeffitsientni, 2012 yilda 112,26 koeffitsientni tashkil etdi. Xususiy sarmoya rentabelligi 2010 yilda 0,25 koeffitsientni, 2011 yilda 0,28 koeffitsientni, 2012 yilda esa 0,33 koeffitsientni tashkil etdi. Doimiy sarmoya rentabelligi 2010 yilda 0,25 koeffitsientni, 2011 yilda 0,28 koeffitsientni, 2012 yilda esa 0,33 koeffitsientni tashkil etdi.

2.8-jadval.

**“KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010 - 2012 yillardagi ishlab chiqarish
rentabelligi darajasi tahlili.**

№	Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	Farq (+;-)
	1	2	3	4	5
1	Sotuvlar yalpi hajmi (ming so'm)	76470	89833	85599	-4234,0
2	Mahsulot sotish (ming so'm)	356892	401896	783624	381728,0
3	Moddiy aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati (ming so'm)	1845625,0	1942057,0	1967782	25725,0
4	Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati (ming so'm)	48256,3	23910,0	253651,5	229741,5
5	Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati (ming so'm)	1893881,3	1965967,0	2221433,5	255466,5
6	Mahsulotning fond sig'imi koeffitsienti, tiyin	517,1	483,2	251,1	-232,1
7	Aylanma mablag'larni mustahkamlash koeffitsienti, tiyin	13,5	5,9	32,4	26,4
8	Sotilgan mahsulotning bir so'miga foyda, tiyin	21,4	22,4	10,9	-11,4
9	Korxonaning rentabellik darajasi, foizda	4,0	4,6	3,9	-0,7

2.8-jadvalda “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010-2012 yillardagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi tahlil qilingan. Sotuvlar yalpi hajmi 2010 yilda 76470 ming so'mni, 2011 yilda 89833 ming so'mni, 2012 yilda esa 85599 ming so'mni tashkil etgan. Mahsulot sotish 2010 yilda 356892 ming so'mni, 2011 yilda 401896 ming so'mni, 2012 yilda esa 783624 ming so'mni tashkil etgan.



2.9-rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2010-2012 yillardagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi diagrammasi.

Moddiy aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati 2010 yilda 1845625,0 ming so'mni, 2011 yilda 1942057,0 ming so'mni, 2012 yilda esa 1967782 ming so'mni tashkil etgan. Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati 2010 yilda 48256,3 ming so'mni, 2011 yilda 23910,0 ming so'mni, 2012 yilda esa 253651,5 ming so'mni tashkil etgan. Mahsulotning fond sig'imi koeffitsienti, 2010 yilda 517,1 tiyinni, 2011 yilda 483,2 tiyinni, 2012 yilda 251,1 tiyinni tashkil qilgan. Aylanma mablag'larni mustahkamlash koeffitsienti, 2010 yilda 13,5 tiyinni, 2011 yilda 5,9 tiyinni, 2012 yilda 32,4 tiyinni tashkil qilgan. Sotilgan mahsulotning bir so'miga foyda, 2010 yilda 21,4 tiyinni, 2011 yilda 22,4 tiyinni, 2012 yilda 10,9 tiyinni tashkil qilgan. Korxonaning rentabellik darajasi, 2010 yilda 4 foizni, 2011 yilda 4,6 foizni, 2012 yilda 3,9 foizni tashkil qilgan.

III-BOB. QURILISH KORXONASIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Qurilish korxonasida ishlab chiqarishni samarali boshqarishda menejmentning zamonaviy usullardan foydalanish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish tarmog'ida ishlab chiqarishni boshqarish deyilganda, qurilishda band bo'lgan kishilarning ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatini tashkil etish va yo'naltirishning o'ziga xos tomonlari tushuniladi. Bu o'rinda biz, hududiy boshqaruvni kishilar jamoasiga aniq maqsada kutilgan alohida mehnat faoliyatining ta`siri sifatida tushunamiz.

Bunday holda qurilish tarmog'ida ishlab chiqarishini hududiy boshqarish tizimi muayyan mehnat faoliyati bilan bog'liq munosabatlari, ularning mamlakat va jahon bozori ehtiyojlari uchun zarur darajadagi yuqori sifatli qurilish mahsulotlari etkazib berishlari misolida yaqqol ko'rinadi.

Qurilish tarmog'ida ishlab chiqarishini boshqarish tizimining mohiyati tashkiliy-texnik va ijtimoiy-siyosiy tomonlar yaxlitligida namoyon bo'ladi.

Boshqaruvning tashkiliy-texnik jihati faoliyat doirasi, umumiy boshqaruvdan, ijtimoiy-siyosiy tomondan esa tarmoq, hududiy, tarmoqlararo va uslubiy–yakuniy jihatlardan iborat. qurilish tarmog'ida ishlab chiqarish hududiy boshqaruvning mazmun-mohiyati esa, o'zaro yaxlit aloqalar va tarmoq-hududiy doirada, tarmoqlararo aloqalarda o'z ifodasini topadi.

Keyingi yillarda nazoratning an'anaviy shakllari o'rniga xodimlarning xizmat shakllari o'rniga xodimlarning xizmat topshiriqlarini qanday bajarayotganliklarini, yo'l qo'yilayotgan xatolarni ko'rsatadigan ishchi monitornglari amal qila boshladi.

Xullas, iqtisodni erkinlashtirish sharoitida qurilish tarmog'ida ishlab chiqarishda tarmoqlar – tuzilmaviy siyosatini ishlab chiqish va asoslab berish juda muhimdir.

Pirovardida, iqtisodiyotni erkinlashtirish afzalliklari, globallashtirish talablari asosida sanoat siyosatini ishlab chiqish bozor iqtisodiyotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holda chegaralangan resurs imkoniyatlaridan to'la va oqilona foydalanib, ularni boshqarishga katta e'tibor berish kerak va tadbirkorlik rolini oshirishga e'tibor qaratish zarur.

Biroq, ularning cheklanganligini hisobga olgan holda tarmoq tuzilmalarida islohotlarni amalga oshirish mavjud investitsiya resurslaridan qisqa muddatda samarali foydalanish, ishlab chiqarish pasayishiga yo'l qo'yilmaslik, aholi real daromadlari ko'payishini ta'minlash, to'lov qobiliyatini oshirish asosida olib borish kerak.

Buning uchun u yoki bu korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish menejmentning asosiy maqsadiga aylanadi. Raqobat sharoitida ishlab chiqarishning yuqori iqtisodiy samaradorligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishning yuqori iqtisodiy samaradorligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishning tez o'zgaruvchan, bozor munosabatlariga tez moslashuvchan turlarini qo'llash taqozo etiladi.

Amerika menejmentida boshqaruv deyilganda, rejalashtirish jarayoni, tashkilotning maqsadlarini shakllantirish va unga erishish tushuniladi.


Richard L.Daft ham menejment to'g'risida shunga o'xshash fikrni bayon etadi: «Menejment-bu tashkil etishni rejalashtirish, tashkiliy resurslar ustidan etakchilik (rahbarlik) qilish asosida samarali, unumli ravishda maqsadga erishishdir».

Bunda asosan ikkita muhim g'oya ifodalangan:

1.Boshqarishning asosiy vazifalari, jumladan rejalashtirish, tashkil etish, etakchilik, moliyalashtirish va nazorat.

2.Samarali va unumli tashkil etish maqsadlariga erishish.

Menejmentning asosiy faoliyat doirasini muvaffaqiyatli yuritish menejmentdan turli xil ko'nikma va bilim bo'lishini talab etadi. Tashkiliy maqsadlarga erishishda resurslardan foydalanish jarayoni-chizmada aks ettirilgan:



3.1-rasm. Korxonada tashkiliy maqsadlarga erishishda resurslardan foydalanish jarayoni

L. Daft qayd etganidek, menejment jarayoni-muayyan hududda qurilish tarmog'ida ishlab chiqarishning maqsad va ko'rsatkichlarini tahlil qilgan holda rejalashtirishdan boshlanadi. Shuningdek bu jarayonda maqsad oydinlashtirilib, uni hal etish uchun zarur resurslarga baho beriladi. Bunda shunga e'tibor lozimki, rejalashtirishning zarur darajadagi bajarilmasligi kelajakda qurilish tarmog'ida ishlab chiqarishining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchi navbatda, bu hokimiyat boshqaruv apparatining kelajakda respublika va xalqaro bozorlarni rivojlantirish istiqbollari payqamay qolishlariga olib keladi.

Menejment jarayonining navbatdagi bosqichi qurilishda ishlab chiqarish rejalarini bajarish uslub va zarur ashyolar to'g'risida qaror qabul qilishdan, tashkilot faoliyat doirasini belgilab olishdan iborat.

Tashkil etish rejalashtirilgan vazifalarni va resurslarni boshqaruv tuzilmalari o'rtasida taqsimlashni ko'zda tutadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda menejmentning ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganish masalasiga e'tibor kuchaymoqda. Bu qurilishda ishlab chiqarish tarmog'iga boshqaruv apparati xodimlari tomonidan rahbarlik samarasini oshirish uchun ular orasida doimo bo'lib, maqsad, vazifa va tashkiliy siyosat asoslarini tushuntirib borish talab etiladi. Bunda boshqaruv apparati xizmati ishidan ham dalil –isbotlar keltirmoq zarur.

Bunda shuni ham hisobga olish zarurki, tarmoq tuzilmasini isloh qilish uzoq muddatli jarayon va biz istagan tuzilmani yaratish ko'p miqdorda mablag' va vaqt talab etadi.

Shunday qilib, qurilish tuzilmaviy siyosati va uning muhim tomoni-bu tarmoq tuzilmasini takomillashtirishdan iborat. Buning sababi shuki, tarmoq tuzilma siljishlaridagi asosiy yo'nalish aholining ijtimoiy talablarini qondiradigan tarmoqlar ulushini doimo oshirib borish bilan bog'liqdir. Ikkinchi tomondan, bu hol qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiylashtirish, korxonalarining xo'jalik mustaqilligini kengaytirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishida korxonaning erkinligini oshirishda namoyon bo'lmoqda. Kichik va o'rta korxonalar ham rivojlanmoqda.

Qurilishda ishlab chiqarishni rivojlantirish va oqilona joylashtirishni bashorat qilish, shu asosda tarmoqni rivojlantirishning indikativ rejalarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bunday rejalariga direktiv buyruq emas, balki tavsiyalarga asoslangan yo'nalishlar kiradi.

Bu shu narsa bilan bog'likki, bozor sharoitida qurilishda ishlab chiqarish tarmoqlararo mutanosiblikni o'rnatish buyruqbozlik usuli bilan emas, balki iqtisodiy omillar, uslublar yordamida amalga oshiriladi. Ammo, rejalar faqat taxminlar asosida

qurilmasligi, balki ular ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha aniq va maqsadli dasturlardan kelib chiqqan holda tuzilishi kerak. Ularning asosida qurilishda ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tuzilmaviy siyosatni ishlab chiqish zarur.

Bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi qurilish korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish miqdorini belgilashda, mahsulotlarni qaysi bozorlarda va kimga sotish masalasini, narx shakllanishi va daromadlardan foydalanishni mustaqil hal qilishni taqozo etadi. Ammo tadqiqotlarning ko'rsatishicha, rivojlangan davlatlar tajribalari tovar etishtiruvchilar iqtisodiy mustaqilligi masalasining nisbiy ekanligidan dalolat beradi. Chunki, bozor iqtisodiyoti amal qiladigan sharoitda har bir tovar ishlab chiqaruvchi bozorda shakllangan talab va taklif muvozanati, raqobat kurashi qonuniyatlari va bozorning boshqa talablariga bo'ysunishga majbur bo'ladi va oladigan daromadi ushbu omillar ta'sirida shakllanadi. Bozordagi talab darajasidan ortiq miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish narx tushib ketishiga olib kelgan taqdirda ishlab chiqaruvchidan yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirishni, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yo'llarini qidirishni talab etadi. Ushbu vazifalarning o'z vaqtida hal etilishi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligiga imkon beradi. SHunday qilib, yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bozor sharoitida tovar ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqaruvchi tomonidan bozordagi talab darajasini qanchalik o'rganib uning o'zgarishini oldindan bilgan holda, Ushbu talabga moslashish uchun amalga oshirilgan tadbirlari natijasigina ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'min eta oladi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik darajasi ortishi kata ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, ishlab chiqarish faoliyatining foydali natijasi ishlovichlar moddiy manfaatdorligining o'sishini va ortiqchas arf-xarajatlarning tejalishini, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy zarur mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirishni ta'minlaydi. Bu esa, ishlab chiqarish natijalari bilan ishlovichlar turmush darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha jabhalarini qamrab olgan holda kishilarning mehnati natijalarini o'zida aks ettiradi va sarf daromad ko'rinishida shakllanib, ishlab chiqarishni kengaytirish, mehnatkashlarning moddiy farovonligini oshirish va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy yuksalishi yo'lida mustahkam moddiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi iqtisodiy atama sifatida ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan moddiy ne'matlar qiymati miqdorining o'sish sur'atlari, uni ishlab chiqarishga ketgan sarf-xarajatlar miqdori o'sishi sur'atlaridan yuqori bo'lishi va shuningdek, moddiy ne'matlar qiymati absolyut miqdorining uni yaratishga sarflangan resurslar absolyut miqdoridan yuqori bo'lishi bilan ifodalanadi.

Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi darajasiga ko'plab omillar ta'sir etadi. Ushbu omillarni shartli ravishda quyidagi gurahlarga bo'lish mumkin:

- tabiiy-iqtisodiy omillar;
- tashkiliy-iqtisodiy omillar;
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar
- bozor muhiti omillari.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar o'z navbatida ko'plab ko'rsatkichlardan tashkil topadi, ya'ni tabiiy-iqtisodiy omillar:

- qurilish materiallari miqdori va tarkibiy tuzilishi;
- tabiiy iqlim sharoiti;

Tashkiliy-iqtisodiy omillar. Ushbu omillar guruhi tarkibiga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin:

- qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarini yo'lga qo'yish;
- xom ashyo va boshqa moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- ishlab chiqarish ixtisoslashuvi;
- xo'jalik yuritish shakli va ichki xo'jalik munosabatlarini yo'lga qo'yish;

- ishlab chiqarishni moliyaviy resrslar bilan ta`minlash.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ushbu omillar guruhi tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- quruvchilarning mol-mulkka egalik qilish darajasi;
- mulkchilik shakli va iqtisodiy erkinlik darajasi;
- quruvchilarga moddiy manfaatdorlik mexanizmining joriy etilishi.

Bozor muhiti omillari. Bozor muhiti omillari Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichi va kelajak taraqqiyot jarayonida asosiy omillar qatoridan joy olishi tabiiy hol hisoblanadi. Shu jihatdan ham, Ushbu omillar guruhi mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin. Bozor muhiti omillari buqurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar xohish va istaklaridan tashqarida ob`ektiv ravishda mavjud bo`lgan faol kuchlar bo`lib, mahsulotlarga nisbatan shakllanadigan bozordagi talab va takliflar o`z ta`sirini o`tkazadi, ushuningdek, korxonaning moliyaviy natijalari shakllanishi jarayoniga o`zining ijobiy yoki salbiy ta`sirini o`tkazadi.

Ushbu omillar guruhi tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bozordagi raqobatchilar;
- qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish jarayonida ishtirok etuvchi vositachilar;
- qurilish tashkilotlarining bozordagi mijozlari;
- hukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, qonunlar;
- aholining daromadlari darajasi va milliy an`analari.

Yuqorida sanab o`tilgan omillarning har biri qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligiga alohida sharoitlarda jiddiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Ammo sanab o`tilgan omillarning ba`zilari keskin ob`ektiv xarakterga ega bo`lib, ishlab chiqaruvchining unga ta`sir qilish doirasi chegaralangan bo`lsa, ba`zilari jumladan,

ijtimoiy, iqtisodiy omillardan oqilona tarzda foydalanish orqali ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, bozor muhiti omillari, bozor munosabatlari amal qiladigan sharoitda kata ahamiyatga ega bo'lib, qurilish mahsulotlariga ichki va tashqi bozordagi talabning o'zgarishi, baholar dinamikasini oldindan bashorat qila bilish orqali xo'jaliklarning iqtisodini barqarorlashtirishda kata yutuqlarga erishish mumkin. nimakaki, iste'molchining talabini o'rganmasdan turib, mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshirilishi ishlab chiqaruvchiga kata miqdordagi zarar keltirishi mumkin. yoki buning aksi, ma'lum mahsulot turiga talab ortishini oldindan bilmaslik ham xo'jalik uchun kata imkoniyatlarni boy berish bilan barobardir.

Umuman olganda, ta'kidlab o'tilgan omillarni e'tiborga olgan holda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish o'sib borayotgan respublikamiz aholisini arzon va sifatli qurilish mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda va tarmoq rentabelligini oshirishda muhim ahamiyat kasb eatadi.

3.2. Qurilishda menejment samaradorligini va ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini takomillashtirish

Ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini tahlil etish uslublarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: xo'jalik faoliyati samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish, mazkur ko'rsatkichlarning o'zgarish sabablarini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan sanoat qurilishida samaradorlikni oshirish maqsadida ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va o'lchash.

Ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini tahlil etish uslublarining o'ziga xos xususiyatlariga ishlab chiqarishning ob'ektiv shart-sharoitlari bilan belgilanadigan ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni aniqlash va o'lchash taalluqlidir, bu erda mazkur ko'rsatkichlarni sun'iy tarzda bog'lash mumkin emas. Mahsulotni ishlab chiqarish miqdori, masalan ishchi kuchi, mehnat qurollari, mehnat

vositalaridan foydalanish bilan bog'liq uchta guruh omillariga bog'liq. Masalan, ishchi kuchidan foydalanish bilan bog'liq omillar miqdor va sifat turlariga ajratiladi. Miqdor turlariga ishchilar soni, sifat turlariga-ularning mehnat unumdorligi(bir ishchiga to'g'ri keladigan) taalluqlidir. Bir ishchiga bir yilda to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot o'z navbatida bir ishchining bir kunda ishlagan soatlariga va bir soatga to'g'ri kelgan ishlab chiqarish unumdorliklariga bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan qurilish tarmog'ida ishlab chiqarish miqdoriga ta'sir qiladigan ba'zi omillar ro'yxati shuni taqozo etadiki, iqtisodiy tushunchalar va xo'jalik ko'rsatkichlarini alohida berk holda qarash mumkin emas, ularning barchasi o'zaro bog'liq. Ammo bu holat iqtisodiy hisob-kitoblar jarayonlarida ularning mantiqiy ajratilish imkoniyatlari va zaruratini umuman istisno qilmaydi. Juda keng tarqalgan uslubiy usullarda mazkur omillarning boshqa teng shart-sharoitlarda ta'sir qilish darajasi, ya'ni qolgan omillar xuddi o'zgarmas tarzda hisoblangan holdagi ta'siri aniqlanadi.

Iqtisodiy tahlil fan sifatida quyidagilar bilan bog'liq maxsus bilimlar tizimidan iborat:

a) ob`ektiv iqtisodiy qonunlar va sub`ektiv tartibdagi omillar ta'sirida shakllanadigan iqtisodiy jarayonlar va ularning o'zaro aloqadorligini tadqiq qilish bilan;

b) biznes-rejalarni ilmiy asoslash, ularning ijro etilish samaradorligini ob`ektiv baholash bilan;

v) ijobiy va salbiy omillarni aniqlash va ular harakatlarini son jihatdan o'lchash bilan;

g) xo'jalik taraqqiyoti tendentsiyalari va proporsiyalarini aniqlash, ishlatilmagan ichki xo'jalik zahiralarni aniqlash bilan;

d) ilg'or tajribani umumlashtirish, optimal(maqbul) boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan.

Iqtisodiy jarayonlar, agarda induksiya usuli qo'llanilsa, kichik, yakka-ayrim alohidagi xo'jalik dalili, hodisasi, vaziyati bilan bog'lanadigan,(bu esa umumiy holda boshqariladigan tizimosti va boshqaruvchi tizimning u yoki bu bo'g'inida xo'jalik faoliyati samaradorligi mohiyatini ifodalaydi) xo'jalik jarayonini tashkil etadi.

Xo'jalik mexanizmini qayta qurish va uni bozor munosabatlariga yo'naltirish ko'plab muhim iqtisodiy kategoriyalarning an'anaviy tushunchalarini qayta ko'rib chiqishni, ayrim hollarda ularni butunlay boshqa mazmun va amaliy mohiyat bilan to'ldirishni talab etadi.

Qurilish tashkiloti hisob-kitobi tahlili hisob-kitobga kiritilgan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining turli ko'rsatkichlari o'rtasida o'zaro aloqalar va bog'liqlikning ifodasi sifatida tushuniladi. Tahlil ko'rsatkichlari manfaatdor shaxslar va tashkilotlar uchun kechayotgan holat va tashkilotning oldingi yillardagi faoliyati va uning istiqboldagi salohiyatli imkoniyatlarini baholash asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bunday tahlil gorizontal, vertikal va trend tahlilni, shuningdek maxsus koeffitsientlarni qo'llash va hisob-kitoblarni umumiy o'rganishni qamrab oladi. Hisob-kitobni umumiy o'rganish korxonalar mablag'larini jalb qilishning asosiy manbalari, ularning qo'yilmalari, yo'nalishlari, hisob-kitob davrida olingan foydaning asosiy manbalari, pul mablag'larini olishning asosiy manbalari, qo'llangan hisobot uslublari va ulardagi o'zgarishlar, tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi, ularning faoliyat yo'nalishlari va boshqalar to'g'rida xulosalar qilish imkonini beradi. Hisob-kitobni umumiy o'rganish ahamiyati yuqori bo'lishiga qaramasdan, ammo u tashkilot faoliyati asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi bozordagi o'xshash qurilish tashkilotlari orasidagi o'rnini baholash imkoniyatini bermaydi. Bunga nisbiy tahlil orqali erishiladi.

Gorizontal tahlilni o'tkazish oldingi faoliyat davrlari bilan qiyoslaganda turli hisob-kitob ko'rsatkichlarining mutlaq va nisbiy og'ishini aniqlash imkonini beradi.

Vertikal tahlil 100% deb olinadigan umumiy natijada ayrim

bo'limlarning(moddalarning) solishtirma ulushini aniqlash maqsadlarida amalga oshiriladi. Trend tahlili hisob-kitob ko'rsatkichlarining barcha ko'rsatkichlari 100% deb olinadigan bazis yillarning qator yillardagi nisbiy og'ishining hisob-kitobiga asoslanadi.

Hozirgi davrda qurilish tashkilotlarining xodimlari maxsus koeffitsientlarni o'rganishga eng ko'p e'tibor qaratishmoqda. Ular tashkilotning moliyaviy holatini tez fursat ichida va nisbatan aniq baholash imkonini beradi. Hisob-kitob jarayonida inflyatsiya ta'sirini ham hisobga olish lozim. Ammo bu koeffitsientlar hamma holatlarda ham tashkilotning sub`ektiv holatini ifodalashi mumkin emas, chunki qiyoslash bazasi tez-tez o'zgarib turadi.

Ular buxgalterlik hisoboti uslublaridagi tafovutlarni qamrab ololmaydi, yakuniy ma'lumotlar sifatini ifodalamaydi, ya'ni statik tusga egadir.

Agarda ularning darajasi qiyoslash bazasidan past bo'lsa, bu ko'rsatkichlar ayrim hollarda qo'shimcha tahlilga muhtoj bo'ladigan tashkilot faoliyatining eng nochor nuqtalarining ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bunday tahlil u yoki bu koeffitsient hisoboti bilan shartlangan salbiy va ijobiy baholashni tasdiqlamasligi ham mumkin. Ko'p hollarda muayyan umum tan olingan andoza me'yorini konkret sharoitlar va ayrim tashkilot xususiyatidan kelib chiqqan holda masalan, oldingi yillarda erishilgan faoliyat darajasining izdan chiqarilishi va boshqalar ta'sirida to'g'rilash lozim bo'ladi. Ammo, bunday koeffitsientlar qurilish tashkilotlaridagi boshqarishda qo'llanilishi mumkin emas degani emas. Ularga tahlil vositasi sifatida faoliyatni baholash natijalariga ega bo'lish sabablarini tushunish kabi munosabatda bo'lish kerak.

Tashkilot menejeri har qanday qaror qabul qilar ekan, bu qarorlarning eng muhim koeffitsientlarga ta'sirini baholashi lozim. Koeffitsientlarning tahliliy qiymati, masalan, ko'plab mamlakatlarda mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida ular bilan qiziquvchi shaxslar foydalanuvchi maxsus nashrlar mavjudligi bilan isbotlanadi. Turli xil ma'lumotlarda nashr etilgan ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifidagi

sezilarli tafovutlarga qaramasdan, barcha koeffitsientlar likvidlik, ishbilarmonlik faoliyati, rentabellik, to'lovchanlik, bozor faolligi guruhlarida o'z ifodasini topishi mumkin.

Tahlil ham mutlaq, ham nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Likvidlik va bozor barqarorligi, shuningdek korxonalar rentabelligi nisbiy ko'rsatkichlari hisob-kitobi alohida ahamiyat kasb etadi.

Foyda va rentabellik ishlab chiqarish samaradorligining muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi. Foyda-bu, bir tomondan, korxonalar fondlarining asosiy manbalari, ikkinchi tomondan-davlat va mahalliy byudjetlar daromadlari manbaidir. Bunda nafaqat foyda ko'lamini va o'sishi, balki rentabellik darajasini hisobga olish; ishlab chiqarish fondlarining har bir so'miga nisbatan qancha foyda olinganligini bilish muhimdir.

Foyda ko'lamini va rentabellik darajasiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar foydasi va rentabelligi ishlab chiqarish va marketing faoliyati jadallashuvining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Korxonalar uchun foydaning davlat hamda mahalliy byudjet va korxonalar tasarrufida qolgan qismlarga taqsimlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy ehtiyojlarga taalluqli foyda texnik qayta qurollanish va ishlab chiqarishni kengaytirish, o'z aylanma mablag'larini rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va uy-joy qurilishlariga, ijtimoiy-moddiy va kommunal maqsaddagi ob'ektlarga taqsimlanadi.

Foydaning chuqurlashgan tahlili uchun uning ko'lamligiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni guruhlash masqadga muvofiqdir.

Tashqi omillar guruhiga quyidagilar taalluqli:

- tabiiy (iqlim) sharoitlar, tijorat va ayrim korxonalarda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladigan va boshqalarida qo'shimcha foydani shartlovchi boshqa omillar;

- korxonada rejasida ko'zda tutilmagan o'zgarishlarga: mahsulotga ulgurji narx, iste'mol qilinadigan xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i, sotib olinuvchi yarim fabrikatlar hamda korxonalar tomonidan to'lanadigan xizmatlar va tashuvlarga tariflar, savdo chegirmalari, ustamalar, amortizatsion chegirmalar me'yori, ish haqi stavkalari va soliq hamda boshqa yig'imlarga ustamalar;

-korxonada manfaatlariga dahldor etkazib beruvchilar, ta'minot-sotuvchi, yuqori turuvchi xo'jalik, moliyaviy, bank va xo'jalik masalalari bo'yicha davlat organlari tomonidan intizomning buzilishi;

Ichki omillar guruhi: ish natijalarini belgilab beradigan asosiy omillarga va korxonada tomonidan davlat intizomlarini buzish bilan bog'liq omillarga bo'linadi.

Korxonada daromadlarida foyda asosiy o'rinni egallaydi. Foyda qoidaga binoan, moliyaviy nuqtai-nazardan byudjetga to'lanishi ko'zda tutilgan xarajatlar va to'lovlarni qoplashning muhim manbai hisoblanadi.

Korxonalarining moliyaviy holati ular mablag'larining holati va taqsimlanishini aniqlaydi, bu esa buxgalterlik balanslarida ifodalanadi.

Moliyaviy holatlarning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

-o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik;

-mavjud moddiy mablag'larning normativga to'g'ri kelishi(moliyaviy-ekspluatatsion ehtiyojga);

-mablag'lar manbalarining ular uchun ko'zda tutilgan zahiralardan bilan ta'minlanganligi;


-aylanma mablag'lar immobilizatsiyasi;

-korxonada to'lovchanligi.

Korxonada to'lovchanligi uning moliyaviy holatini ifodalaydi. Normal to'lovchanlik boshqa tashkilotlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniyatini beradi. To'lovchanlikni baholashda korxonada ishining konkret shart-sharoitlarini hisobga olgan holda munosabatda bo'lish kerak.

Ayrim hollarda korxonaning to'lovga qodirsizligining sababi o'zidagi bo'sh xo'jalik yuritishda emas, balki u ishlab chiqargan mahsulotni sotib oluvchilarning to'lovchansizligidadir.

Foydaning mutlaq hajmi korxonalar ishining iqtisodiy samaradorligini to'liq belgilamaydi, uni avanslangan yoki iste'mol qilingan mablag'lar ko'lami bilan taqqoslash lozim.



3.

2-rasm. “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2012-2013 yillardagi asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarining qiyosiy bashorati

3.1- jadval

**“KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2012-2013 yillardagi asosiy texnik – iqtisodiy
ko’rsatkichlarining qiyosiy bashorati**

№	Ko’rsatkichlar	O’lchov Birligi	2012	2013	Farq (+;-)	O’zg.nis. %
	1	2	3	4	5	6
1	Sotishdan tushim	ming so’m	783624	1112746,1	329122,1	142
2	Ishlab chiqarish tannarxi	ming so’m	698025	844610,2	146585,25	121
3	YAlpi foyda	ming so’m	85599	123262,56	37663,6	144
4	Foydadan soliq	ming so’m	18256	22272	4016,0	122
5	Ishchilarni o’rtacha soni	Kishi	38	45	7,0	118
6	Bir ishchiga to’g’ri keladigan mahsulot	ming so’m	20621,7	24727,7	4106,0	120
7	Sof foyda	ming so’m	7846	11298	3452,0	144
8	Ish haqi fondi	ming so’m	563623	589623	26000,0	105
9	Bir ishchiga o’rtacha ish haqi	ming so’m	20621,7	13102,7	-7519,0	64
10	Debitorlik qarzlari	ming so’m	133606	125636	-7970,0	94
11	Kreditorlik qarzlari	ming so’m	105911	95680	-10231,0	90
12	Aylanma mablag’lar miqdori	ming so’m	2378386	2452101	73715,0	103
13	Bir kunlik tushum	ming so’m	2176,7	3091,0	914,2	142
14	Korxonaning rentabellik darajasi	%	89,1	96,4	7,3	0

3.2-jadvalda “KHOREZM BRIKS” MCHJ ning 2012-2013 yillardagi asosiy texnik – iqtisodiy ko’rsatkichlarining qiyosiy bashorati keltirilgan. Bunda, sotishdan tushim 2012 yilda 783624 ming so’zni tashkil qilgan bo’lsa, 2013 yilda 42 foizga oshib, 1112746,1 ming so’zni tashkil qilishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish tannarxi 2012 yilda 698025 ming so’zni tashkil qilgan bo’lsa, 2013 yilda 21 foizga oshib, 844610,2 ming so’zni tashkil qilishi kutilmoqda. Yalpi foyda 2012 yilda 85599 ming so’zni tashkil qilgan bo’lsa, 2013 yilda 44 foizga oshib, 123262,56 ming so’zni tashkil qilishi kutilmoqda. Debitorlik qarzlari 2012 yilda 133606 ming so’zni tashkil qilgan bo’lsa, 2013 yilda 6 foizga kamayib, 125636 ming so’zni tashkil qilishi kutilmoqda. Aylanma mablag’lar miqdori 2013 yilda 2378386 ming so’zni tashkil qilgan bo’lsa, 2013 yilda 73715,0 ming so’zga oshib, 2452101 ming so’zni tashkil qilishi mumkin. Bir kunlik tushum 2012 yilda 2176,7 ming so’zni tashkil qilgan bo’lsa, 2013 yilda 914,2 ming so’zga oshib, 3091,0 ming so’zni tashkil qilishi mumkin.

XULOSA

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarmoqda bozor iqtisodiyoti tamoyillari va talablariga mos keladigan xo'jalik munosabatlarini keng joriy etish, pudrat, loyiha ishlari va qurilish materiallarining rivojlangan bozorlarini shakllantirish, qurilishda narx belgilash mexanizmini takomillashtirish, loyihalarni amalga oshirishning pirovard natijalari va samaradorligi uchun investitsiya jarayoni barcha qatnashchilarining ma'suliyatini oshirish maqsadida iqtisodiy inqrozni oldini olish va yumshatish borasida dasturda keltirilgan bo'limlardan kelib chiqqan holda har bir korxonada menejment samaradorligini oshirish maqsad qilib qo'yildi.

Qurilishda boshqaruv va xo'jalik munosabatlari tizimiga bozor tamoyillari hamda mexanizmlarini keng joriy etish, loyiha va qurilish ishlarini bajarishga buyurtmalar joylashtirish tanlov savdolari (tenderlar)ni tashkil etish darajasini oshirish va shuningdek ko'pgina boshqa yo'nalishlar belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki hozirgi paytda qurilishda boshqaruv va ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirish zamon talabidir.

Bu o'z navbatida amalda qurilish tashkilotlarida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Bakalavrlik malakaviy ishimiz misolida tadqiqot ob'ekti sifatida ko'rib chiqqan "KHOREZM BRIKS" MCHJ 2010-2012 yillardagi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish natijasida quyidagicha xulosaga kelindi: sotishdan tushum 2010 yilda 356892 ming so'mni 2011 yilda 401896 ming so'mni, 2011 yilda 783624 ming so'mni tashkil qilgan. Bajarilgan ishlarning ishlab chiqarish tannarxi 2010 yilda 280152 ming so'mni, 2011 yilda 312063 ming so'mni, 2012 yilda 698025 ming so'mni tashkil qildi. YA lpi foyda 2010 yilda 76740 ming so'mni, 2011 yilda 89833 ming so'mni, 2012 yilda 85599 ming so'mni tashkil qildi. Sof foyda 2010 yilda 2501 ming so'mni, 2011 yilda 6374 ming so'mni, 2012 yilda 7846 ming so'mni tashkil qildi.

Mustaqillik koeffitsienti 2010 yilda 0,82 koeffitsientni, 2011 yilda 0,98 koeffitsientni, 2012 yilda 0,96 koeffitsientni tashkil qilgan. Moliyaviy barqarorlik

koeffitsienti 2010 yilda 46,20 koeffitsientni, 2011 yilda 56,02 koeffitsientni, 2012 yilda 22,46 koeffitsientni tashkil qilgan. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti 2010 yilda 1,01 koeffitsientni, 2011 yilda 1,02 koeffitsientni, 2012 yilda 1,04 koeffitsientni tashkil etgan. O'z sarmoyasi harakatchanligi 2010 yilda 0,16 koeffitsientni, 2011 yilda 0,17 koeffitsientni, 2017 yilda 0,17 koeffitsientni tashkil etgan. Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsienti 2010 yilda 0,01 koeffitsientni, 2011 yilda 0,02 koeffitsientni, 2012 yilda 0,04 koeffitsientni tashkil etgan.

Yuqoridagilarga tayangan holda korxonada oldidagi muammolarni barataraf etish uchun shoshilinch va zaruriy choralarini ko'rish talab etiladi.

Korxonaning kelgusidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun avvalo jamiyat tasarrufida qoladigan sof foyda ulushining oshirilishi zarur. Fikrimizcha, bunga quyidagilar orqali erishish mumkin:

- korxonani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish;

- eskirgan asosiy vositalarni yangilash, yangi texnologiya jalb qilish va mahsulot sifatini yaxshilab eksportbop mahsulot ishlab chiqarish kerak;

- korxonada ishlab chiqarish zaxirasi va mehnat sarfidan kelib chiqib, qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish;

- korxonada ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish;

- kadrlar malakasini oshirish, kerakli mutaxasislarni tanlash va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish kerak;

- korxonada menejmentning zamonaviy usullaridan: tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy usullarini aynan, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozini yumshatishga moslashtirgan holda takomillashtirish;

- korxonada boshqaruv tizimini modifikatsiya qilish yoki qaytadan ko'rib chiqish kerak;

- jamiyatni yuqori darajada umum bilan boshqarish uchun kommunikatsiya, marketing ta'minoti va qaror qabul qilish to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim;

-korxonada qoshida bozorni o'rganuvchi marketing xizmati bo'limini tashkil etish, korxonaning hozirgi ahvolidan kelib chiqqan holda istiqboli biznes loyihalarni ishlab chiqish;

-jamiyat tasarrufidagi bo'sh turgan asosiy fondlarning bir qismini lizing va ijara shartnomalari orqali harakatga tushirish lozim;

- jamiyatning ob'ektlarni topshirishda o'zaro hisob-kitob ishlarini olib borishda zamonaviy hisob-kitob shakllaridan, masalan, faktoring xizmatlaridan foydalanish orqali rivojlantirish mumkin.

- boshqaruvchi xodimlar malakasi oshirish lozim, buning uchun ularni ilg'or ishlab chiqarish korxonalariga va bozor boshqaruvi bo'yicha ta'lim beruvchi qisqa o'quv kurslarida o'qitish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7-T.: O'zbekiston, 1999.-410 b.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8-T.: O'zbekiston, 2000.-522 b.
3. Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9-T.: O'zbekiston, 2001.-432 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –Toshkent, “O'zbekiston”. 2009. 54 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni 2003 yil 24 yanvar.
6. Aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini baholash uchun uslubiy tavsiyalar. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 2000 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2008 yil, 9 fevral.
8. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari: 3-chiqarilish, to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr-T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999.-320 b.
8. Abdullaev YO. «Iqtisodiy tahlil» 100 savolga, 100 javob, -Toshkent «Mehnat», 2001 yil.
1. Abdullaev A. va boshqalar. Kichik biznesni boshqarish. Toshkent. 2003 yil.
2. Vahobov A.V., Abdullaev YO.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari ” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2009, 192 b.
3. Govrilenko V.M. Menedjment: Konspekt lektsiy. - M.: Prior-izdat, 2004.- 1606.

4. Ibragimov A., Vahobov A. Firma faolligi va iqtisodiy holatini baholash // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi № 7/8, 2001 y. 18-21-b.
5. Kavalev V.V. «Finansovyy analiz», Moskva «Finansy i statistika»-1996.
6. Kotler F. Marketing menedjment: Ucheb. posob. 11-izd. - M., 2005. -800 b.
7. Leshenko B.A., Matmurodov F.M., Bekbasova A.A. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish asoslari (o'quv qo'llanma), Toshkent, 2004 yil.
8. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. Toshkent, 1999 y.
9. Meskon M., Albert M., Franklin X. Osnovy menedjmenta. Uchebnik M.: Delo, 2000.
10. Parpiev U, Solmonov I. «Bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish», Toshkent, «SHarq», 1996 yil.
11. Pardaev M.K., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999 y., -368 b.
12. SHarifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. Toshkent 2001 yil.
13. Hasanov N., Najbiddinov S. Korxonada moliyaviy holatini baholash: Muammolar va ularni hal qilish. 8-chiqarilish.-T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999 y.-224 b.
14. Xasanov N. Moliyaviy tahlil. Toshkent, 1999 yil.
15. Xasanov N., Najmiddinov S. Korxonada moliyaviy holatini baholash: muammolari va uni hal qilish. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999 y., -368 b.
16. Xodiev B., Bekmurodov A., G'ofurov U., Tuxliev B. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari " nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot, 2009, 120 b.
17. Utkin E. A. Kurs menedjmenta. Uchebnik. M.: Zertsalo, 2000 2 izd.
18. Zaynutdinov SH. N. va boshqalar. Menejment asoslari. Darslik - T: Moliya, 2001
19. Bozor, pul va kredit 2006-2009 yillari
20. Soliq to'lovchi 2008-2009 yillar

Internet saydlari.

[http:// WWW. GAAP/ ru / subsention](http://WWW.GAAP.ru/subsention)

[http:// WWW. analyse-it. com](http://WWW.analyse-it.com)

[http:// WWW. Bolshe. ru / book / Id](http://WWW.Bolshe.ru/book/Id)

[http:// WWW. etin. ru / manajement / intko](http://WWW.etin.ru/manajement/intko)